



**TARBIYACHINING MEDIAMADANIYATINI RIVOJLANTIRISH –  
KASBIY KOMPOTENTLIK VA KREATIVLIKNI OSHIRUVCHI VOSITA  
SIFATIDA**

**Holiqova Sevara**

Andijon Davlat Pedagogika instituti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7370341>

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy kompetentligi va kreativligini rivojlantirishda mediamadaniyat va mediasavodxonlikni o'rnini alohida ko'zda tutiladi. Aynan mediasavodxonlik orqali kasbiy kompetentlik va kreativlikni oshirish va ta'lim jarayoniga shaffoflik va ijobiy natijalar olib kirishga erishish yuzasidan bir qancha tavsiyalar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar. kompetentlik, ijodiy qobiliyat, "Ilk qadam", dastur, kreativlik, interfaol.

Abstract: In this article, the role of media culture and media literacy in the development of professional competence and creativity of educators of pre-school educational organizations is considered. It is through media literacy that a number of recommendations have been given in order to increase professional competence and creativity and to bring transparency and positive results to the educational process.

Key words: competence, creative ability, "First step", program, creativity, interactive.

"Agar o'qituvchi o'z kasbini sevsa, u yaxshi o'qituvchi bo'ladi. Agar o'qituvchi o'zida kasbiga va o'quvchilarga muhabbatni mujassam etsa, bu mukammal o'qituvchidir"

Lev Tolstoy


Hozirgi kunda ta'lim tizimidagi olib borilayotgan islohotlar, yangi innovatsion g'oyalarning ta'lim sohasiga kirib kelishini hisobga olgan holda ta'lim –tarbiya jarayoniga kasbiy kompetentlik va kreativlik bilan yondashish, ta'limda yangi zamonaviy usul va vositalardan foydalangan holda mashg'ulotlarni olib borishni taqozo etmoqda.

Shiddat bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda maktabgacha ta'lim sohasiga ham mediasavodxonlik tushunchasi kirib keldi va ayni paytda aynan media savodxonlikni oshirish masalalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Tarbiyachining kasbiy kompetentligi va kreativligi har qachon mashg'ulot o'tish jarayonidagi muhim omillardan biri bo'lib, Aynan kasbiy kompetentlik va kreativlikni rivojlantirishda mediasavodxonlik muhim ro'l o'ynaydi. Odamlarga turli media shakllarini va xabarlarini tahlil qilish, baholash va yaratishga imkon





beradigan ko'nikmalar to'plamiga mediasavodxonlik deyilib, aynan mediasavodxonlik orqali ta'lim tizimdagi qulayliklar va sifatli dars va mashg'ulotlarga erishish mumkin. Media savodxonlik tarbiyachilarga axborot va ommaviy dasturlarda tashviqot, senzura yoki biron vaziyatni faqat bir tomondan ko'rsatish kabi holatlarga ommaviy axborot vositalarini nima majbur qilayotganligini tahlil qilish, shuningdek, ommaviy axborot vositalarining egasi, ularning moliyalashtirish modeli kabi tarkibiy elementlarni tushunish imkonini beradi. Media savodxonlik orqali tarbiyachilar har qanday axborotni to'g'ri tahlil qilishga erishadi va o'zining kasbiy jarayonida eng to'g'ri mediate'lim vositalaridan foydalana oladi. Barchaga ma'lumki mashg'ulot o'tish metodlari 3 hil bo'ladi:



Mediasavodxonlik asosan mashg'ulotlarni interfaol nuqtaga olib chiqishga xizmat qiladi. Mediasavodxonlik mashg'ulot jarayonini samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Mediasavodxonlikni asosiy mezonlari: norasmiy baxs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, tarbiyachi nutqi kamligi, lekin qiziqarli mashg'ulotlar sonini ko'pligi, tarbiyalanuvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, jamoa bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, ta'lim-tarbiya ishlari samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda mediasavodxonlikni oshirish barcha sohalar qatori maktabgacha ta'lim sohasida ham yo'lga qo'yilgan bo'lib, tarbiyachilardan har bir mashg'ulotga jiddiy tayyorgarlik bilan kirishini taqozo etadi.

Buning uchun:

1. Mashg'ulot o'tishda qaysi mashg'ulotlarni tanlash va ularga mediasavodxonlikka suyanib, interfaol metodlardan qo'llay olish. Bunda har bir





mavzu bo'yicha mashg'ulotning maqsadiga to'liq erishishni ta'minlaydigan interfaol yoki mediasavodxonlikka asoslangan mashg'ulot turlaridan foydalanish ko'zda tutiladi.

2. Mediasavodxonlikka asoslangan interfaol mashg'ulotning samarali bo'lishi uchun tarbiyalanuvchilar yangi mashg'ulotdan oldin u bo'yicha o'z fikrlarini bayon qilishi va dastlabki ma'lumotlarni bilishlarini ta'minlash zarur.

3. Mediasavodxonlikka asoslangan interfaol mashg'ulotlarda tarbiyalanuvchilarning mustaqil izlanishlari uchun an'anaviy mashg'ulotlarga nisbatan ko'proq vaqt sarflanishini hisobga olish zarur.

Mediasavodxonlikka asoslangan interfaol mashg'ulotlar –har bir tarbiyalanuvchi tomonidan mavjud vositalar va o'z imkoniyatlari darajasida amalga oshiriladi. Aynan mediasavodxonlikni oshirish orqali tarbiyachi o'z kasbiga kreativ yondashib boradi va ta'lim samaradorligi ortadi.

Tarbiyachining kasbiy kompetentligi uning mashg'ulot jarayonida yaqqol ko'rinadi. O'z kasbiga mehr qo'ygan har bir tarbiyachi tinimsiz ravishda o'z ustida ishlaydi. Bilim orttirishda tarbiyalanuvchilar eshitganidan ko'ra ko'rganida, ko'rganidan ko'ra bajarganida samaraliroq natijaga erishadi.

Tayyorlov guruhi tarbiyachisining asosiy e'tibori barcha bolalarning maktabgacha ta'lim davlat o'quv dasturida nazarda tutilgan mazmuni to'liq egallab olishlariga qaratiladi, chunki bu maktab ta'limiga to'laqonli tayyorlashning majburiy sharti hisoblanadi. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturida tayyorlov guruhidagi (6-7 yosh) bolaning tayan kompetensiyalari belgilab qo'yilgan. Ular quyidagilar:

- Kommunikativ
- Ijtimoiy
- Shaxsiy ("Men" konsepsiyasini qurish)
- Bilish

Shularni hisobga olgan holda, har bir mashg'ulot jarayoniga mediasavodxonlikka asoslanib, har bir axborot oqimini tahlil qilgan holda joriy qilish ta'lim samaradorligiga katta ta'sir qiladi.

Hulosa qilib aytganda mediasavodxonlikni yo'lga qo'yish va mediasavodxonlikka asoslangan mashg'ulot olib borish bir vaqtda bir necha masalani hal etish imkoniyatini beradi. Qolaversa mediasavodxonlikka asoslangan interfaol mashg'ulotlar tarbiyalanuvchilarning zo'riqishlarini bartaraf qiladi, faoliyat shaklini o'zgartirib, diqqatini mashg'ulotning asosiy qismiga qaratishga katta yordam beradi.



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. "Ilk qadam" davlat o`quv dasturi yangi nashri.
2. Z.Qosimova Ta`lim texnologiyalari.: "Tafakkur qanoti" nashriyoti, 2014.
3. <https://ppmedu.jspi.uz>

